

MOTIV VA MOTIVATSIYA

Osiyo xalqaro universiteti dotsenti

Ikromova Sitora Akbarovna

Osiyo xalqaro universiteti talabasi

Ziyodullayeva Maftuna

Annotatsiya: Ushbu maqolada motiv va motivatsiya tushunchalarining psixologik mazmuni, ularning nazariy asoslari hamda amaliyotdagi qo‘llanilishi yoritilgan. Motivatsiya jarayoni shaxsning faoliyatga bo‘lgan ichki va tashqi undovchilari orqali rag‘batlantirilishining asosiy mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Maqolada motivatsiyaning turlari, unga ta‘sir etuvchi omillar, shuningdek, motivatsiyani oshirishga qaratilgan pedagogik va psixologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarda o‘quv faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyani shakllantirishda o‘qituvchi va muhitning roli amaliy misollar orqali ko‘rsatiladi. Ilmiy nazariyalar asosida motivatsiyaning individual va ijtimoiy jihatlari o‘rganilib, uni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Motiv, motivatsiya, ichki va tashqi motivlar, psixologik jarayon, o‘quv motivatsiyasi, rag‘batlantirish, faoliyat, shaxsiy o‘sish, pedagogik amaliyot.

Motivatsiya - bu hayotimizning muhim harakatlantiruvchi kuchi. U orqali insoniyat buyuk yutuqlarga erishadi. Zamonaviy psixologiyada motiv va motivatsiya o‘rganilishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Motiv so'zi fransuzcha "motif" so'zidan kelib chiqqan. Bu so'z harakatga undovchi sababni anglatadi.

Insonning ichki turtki va faoliyatga rag'batini ifoda etuvchi psixologik hodisa.

Harakatlarimizni yo'naltiradi va maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni shakllantiradi.

Shaxsning ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish yo'llarini belgilaydi.

Motiv (psixologiyada) — inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo‘luvchi omil, vaj motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo‘luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqa motivlar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon psixologiyasida Motiv atamasi sub’yektni faollashtiruvchi turli hodisa va holatlarni ifodalash uchun qo‘llanadi. Xatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiya deyiladi. Motiv ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi.

Xatti-harakat va faoliyat motivlari majmui. Insonni harakatga keltiradigan ichki kuchlar tizimi.

Shaxs faoliyatini yo'naltiruvchi va boshqaruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi:

A.Maslouning fikricha, motiv bu ehtiyojlar yig'indisidir.

S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, motiv bu ehtiyojning his qilinishi va qondirilishi.

S.L. Rubinshteyn. "Motivatsiya - bu psixika orqali amalga oshuvchi determinatsiyadir". Determinatsiya lotincha: determinatia — cheklanish, aniqlanish.

A.N.Leontev - motivni inson faoliyatiga yo'nalgan aniq ehtiyojlar va uni qo'zg'atadigan voqelik deb hisoblaydi.

Motiv -ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

Motivatsiya - odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir.

Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi.

Motivatsiya - insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Motivatsiya - murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo'lib, u o'zini mayllar, maqsadlar, ideallar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi.

Motivatsiya terminidagi chalkashliklar

Motivatsiya- Ichki va tashqi rag'batlar natijasida yuzaga keladigan shaxsiy turtki.

Emotsiya- Motivatsiyaga ta'sir qiluvchi his-tuyg'ular majmui.

Maqsad - Motivatsiya natijasida shakllantiriladigan aniq natija.

Ustanovka- Faoliyatga tayyor bo'lish holati.

Emotsiyalar motivatsiyani kuchaytiradi. Quvonch, qiziqish va g'urur kabi ijobiy emotsiyalar faollikni oshiradi.

Qo'rquv va xavotir ham motivatsiyaga ta'sir ko'rsatadi. Ular ba'zan harakatga undashi mumkin.

Aniq maqsad qo'yish harakatga undaydi. Maqsadga erishish yo'lida odam ko'proq kuch sarflaydi. Maqsad va harakatning uyg'unlashuvi kuchli motivatsiya hosil qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, motiv va motivatsiya shaxsning ongli va faol harakatining asosi bo'lib, uni tushunish va to'g'ri yo'naltirish psixologik hamda pedagogik jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning faoliyatga bo'lgan qiziqishi, ehtiyoji va maqsadlari bilan bog'liq motivatsion mexanizmlarni tahlil qilish orqali uning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Ayniqsa, ta'lim jarayonida o'quvchilarning ichki motivlarini rivojlantirish orqali ularning o'qishga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirish imkoniyati mavjud. Nazariya va amaliyot uyg'unligida motivatsiyani chuqur o'rganish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Ikromova, S. A. (2024). PSIXOLOGIK REABILITATSIYA VA MUAMMOLI SHAXSLAR BILAN ISHLASH. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 111-116.

2. Ikromova, S. A. (2024). TUG'ISH VA OTA-ONA BO'LISHNING PSIXOLOGIK ASOSI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 117-122.
3. Икромова, С. А. (2024). ПСИХОЛОГИЯ ЛИЧНОСТИ И ВНУТРЕННИЙ МИР ЧЕЛОВЕКА. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 53-58.
4. Akbarovna, I. S. (2024). МАТЕМАТИК TUSHUNCHALARNI SHAKLLANISHINING AHAMIYATI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 900-905.
5. Ikromova, S. A. (2024). PSIXOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING DAVOLASH USULLARI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 75-80.
6. Икромова, С. А. (2024). ОСНОВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ. New modern researchers: modern proposals and solutions, 1(2), 22-28.
7. Икромова, С. А. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 46-52.
8. Икромова, С. А. (2024). ГРУППЫ И СОЦИАЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ ЛЮДЕЙ В СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЕ R. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 32-38.
9. Ikromova Sitara Akbarovna. (2025). STREES PSIXOFIZIOLOGIYASI. Modern World Education: New Age Problems – New Solutions, 2(4), 58–63.
10. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОНСУЛЬТАЦИИ. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 875-881.
11. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT ASOSLARI. PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 54-60.
12. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK MASLAHAT BOSQICHLARI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 860-866.
13. Ikromova, S. A. (2024). PSIXOLOGIK YORDAMNING ASOSIY USULLARI: MASLAHATLASHUV VA TERAPIYA. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 87-92.
14. Икромова, С. А. (2024). ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ОПЫТЫ ЧЕЛОВЕКА И ПРОЦЕСС НИМИ УПРАВЛЕНИЯ. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 14-19.
15. Икромова, С. А. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ РЕАБИЛИТАЦИЯ, ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА И ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ. New modern researchers: modern proposals and solutions, 1(2), 56-62.